

1-SINFLARDA DAFTAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Abdurazzoqova Dilobar Shunhrat Qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1-sinflarda daftar bilan ishlash qoidalari hamda bosqichlari va bu daftarning 1-sinf o'quvchilari uchun qanchalik muhim ekanligi haqida gap boradi. 1-sinfda duch kelishi mumkin bo'lgan masalalarni o'zlari hal qilish kabi ko'nikmalar hosil qilish usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Daftar, darslik, misol, dars, sonlar, katta, kichik, teng belgilari, 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar, sanash, arifmetik amallar, geometirik shakillar, dars, bezash, yozish, chizish, bo'yash, didaktik materiallar.*

Sinfda ishlashda darslik bilan bir qatorda bosma asosli daftarlar asosiy qo'llanma hisoblanadi. Daftarda berilgan mashqlar darslik materialini to'ldiradi. U asosan dars mazmuniga mos va dars mazmuniga ko'ra tuziladi va u bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Har bir darsning aniq maqsadiga erishishga yordam beradigan va uni to'ldirishga yordam beradigan misol va masalalar orqali yaratiladi va o'quvchi faoliyatiga xilma-xillik kiritadi. Bu daftar o'quvchilarga rasm solish, chala ishlangan rasmlarni tugallash, bo'yash, chiziqlar bilan birlashtirish, raqamlarni yozishga yaxshi tayyorgarlik ko'rish davri bo'lib hisoblanadi. Daftarda satrlarni va ustunlarni ajratuvchi mashqlar beriladi. Har bir darsda o'quvchilar daftarda berilgan vazifani bajarish uchun unda berilgan topshiriqlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni qanday bajarish kerakligi haqida, qaysi chiziqda qanday harakat qilish kerakligi haqida va yana qaysi yo'nalishda harakat qilishlari kerakligi o'qituvchi tomonidan doskaga yozib tushuntirib ko'rsatiladi. Shundan keyingina o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida harakat qilishadi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerak ekanligini tushuntirishda o'quvchilar qo'llariga qalam olib "Havoda" ko'rsatadilar. Daftarda raqamlarni yozish uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rish hisoblanadi. Bunda o'quvchilar rasmlarni bo'yab, katakni qog'ozda ishlashga tayyorgarlik ko'rgan. Bu daftarda satr va ustunni ajratishga yordam beradigan mashqlar berilgan.

Daftarning bir sahifasida asosan uchta darsga material berilgan, ya'ni darslikning uch sahifasini ishlash bo'yicha mos keladi.

Daftarda mustaqil ishlar bilan bir qatorda, odatda, har bir mashg'ulot davomida foydalaniladigan didaktik materiallar bilan bajariladigan mashqlar va predmetlar, mevalar, plastmassadan qilingan o'yinchoqlar hamda shunga o'xshash har xil o'lchamdagi o'yinchoqlar va har xil rangdagi geometirik figuralar, sanoq cho'tar va boshqa didaktik materiallar bo'lishi mumkin. Daftar uchinchi sahifadan boshlanib, har bir sahifada darsga ajratilgan materiallar darslik betining yuqori qismida ko'rsatilgan bo'ladi.

1-darsda. Mustaqillik haqida suhbat bilan olib boriladi.

2-darsda. “Sanash” mavzusi o‘tilgandan sinf geometirik figuralarni bo‘yashni sanash orqali amalga oshiradi.

3-darsda. “Ketma-ketlik” tartibni o‘rganish jarayonida avval qalamda so‘ng ruchkada ishlash qoidalarini mustahkamlash daftarda bajariladi va suhbatlar asosida sanash mustahkamlanadi.

4-6-darsda. Bir xil, har xil tushunchalari o‘rgatiladi bunda daftar va ruchka, kitob va qalam ko‘p-kamligi tushuntiriladi. Mavzu suhbat asosida mavzu mustahkamlanadi. Daftardagi topshiriq bajariladi va yozish malakasi hosil qilinadi.

7-darsda. “Balanda, pastda, yuqorida, ustida, yonida va oldida” kabi tushunchalar haqida ma’lumotlar beriladi va mavzu suhbat asosida mustahkamlanadi. Yozuv malakalari shakllantiriladi.

8-darsda. Darslikda berilgan hayvonlar, qushlar, uy jihozlari va joylashtirilgan o‘rniga qarab mavzu mustahkamlanadi va geometrik shakllarni bo‘yash tushuntiriladi.

9-darsda. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan kuz faslidagi paxta terimi va Alisher Navoiy haqida tarbiyaviy suhbat olib boriladi.

10-darsda. Keyingi mavzularni o‘rganish jarayonida ko‘proq daftar bilan ishlashga vaqt ajratiladi. Chunki bu mavzu “Naqshlar” mavzusi. Bunda o‘quvchilar yozish malakasini shakllantiradi. Bezash tartibi, ruchka va qalamdan to‘g‘ri foydalanish va raqamlashga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

11-darsda. Birinchi raqam bilan o‘quvchilar tanishtiriladi va bir-ikki qator yoziladi. Daftardagi bo‘sh katakchalarda yozuv mashqini mustaqil davom ettirish orqali 1 sonini bosma va yozma shakllarini bilib oladilar.

12-darsda. 2 raqami bilan tanishtiriladi va 2 raqamini yozish malakalari shakllantiriladi.

13-14-darslarda. 3 soni tushuntiriladi va mashq qilish jarayonida 3 soni haqida og‘zaki va yozma nutqi mustahkamlanadi. Arfimetik amallar bajarish orqali yozuv qoidalari mustahkamlandi.

15-16- darslarda. O‘quvchilar 4 soni bilan tanishishadi va bu sonni yozish va 4 soni bilan bog‘liq amallar bajarishni o‘rganib oladilar.

17-18-darslarda. 5 soni bilan tanishishadi. Bu son ustida amallar bajarish orqali 5 soni haqida yaxshiroq bilib oladilar.

1 dan 5 gacha bo‘lgan bosqich yakunlanganidan so‘ng sinfda misollar bajariladi. 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonni to‘g‘ri va teskari yozish mustahkamlanadi.

19-darsda. 0 sonini yozishni mashq qiladilar va nol soninig hosil bo‘lishini og‘zaki va yozma shakllarini yozishni va o‘qishni mashq qiladilar.

20-21-darslarda. 6 sonini yozishni mashq qiladilar. Arfimetik amallar bajarish qoidalari mustahkamlanadi.

22-23-darsda. 7 soni bilan tanishadi va arfimetik amallar bajarishadi.

24-25-darslarda. 8 sonini mashq qilish jarayonida gullarni sanash bilan og‘zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi.

26-27-darslarda. 9 sonini yozishni mashq qiladilar va arifmetik amallar bajaradilar.

28-29-darslarda. 10 soni bilan tanishtiriladi va 10 sonini yozish o'rgatiladi. Arifmetik amallar bajarish qoidalari mustahkamlanadi. Barcha o'tilgan sonlar sanash bilan mustahkamlanadi. Bo'sh kataklarga arifmetik amallar bajariladi.

Shu bilan birga 1 dan 10 ga ha bilan sonlarni yozish va og'zaki sanashni mashq qilish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi shakillanadi. Daftarda sonlardan tashqari katta, kichik, teng kabi belgilar va turli xildagi misollar, shakillarni bo'yash kabi topshiriqlar o'rgatiladi.

Daftarda berilgan geometirik shakillarni bo'yash, ularni chizish va arifmetik amallarni bajarish orqali o'quvchilar o'z oldidagi muammoni o'zlari hal qilishni ya'ni ularga berilgan topshiriqni mustaqil bajarish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Geometirik shakillarni bo'yashda o'zlari mustaqil ranglarni tanlash orqali esa o'quvchilarda o'zlari hohlagan yo'nalishni tanlash ko'nikmalari shakillantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bu daftar o'quvchilar ongini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun juda kerakli o'quv quroli hisoblanadi. Bu daftardagi topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarda yozish ko'nikmalari shakillanadi va malakasi ortadi. Bu daftardagi misollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, geometirik shakllar esa tasavvurini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.E.Jumayev. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan laboratoriya mashg'uloti". Toshkent-2006.
2. M.E.Jumayev. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". Toshkent-2022.